

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MIRZAALIYEVA NARGIZA RAJABBOYEVNA

**ABDULLA QAHHOR VA ERNEST HEMINGUEY HIKOYALARI
QAHRAMONLARINING QIYOSIY TIPOLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falasafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in Philology
Sciences**

Mirzaaliyeva Nargiza Rajabboyevna

Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlarining qiyosiy
tipologik tadqiqi 3

Мирзаалиева Наргиза Раджаббоевна

Сравнительное типологическое исследование персонажей рассказов Абдуллы
Каххара и Эрнеста Хемингуэя

Mirzaaliyeva Nargiza Rajabboyevna

A Comparative Typological Study of the Characters in Abdulla Qahhor and Ernest
Hemingway's Stories

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MIRZAALIYEVA NARGIZA RAJABBOYEVNA

**ABDULLA QAHHOR VA ERNEST HEMINGUEY HIKOYALARI
QAHRAMONLARINING QIYOSIY TIPOLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2861-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jo‘rayeva Gulnoza Ahmatovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Musurmanov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori, professor

Umarova Mahliyo Yunusovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston milliy pedagogika
universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103-uy. Tel.: (+99871) 281-42-44; faks: (+99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “____” _____ dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.S. Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., akademik

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.Z.Normurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
asosidagi bir martalik ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xalqlari sivi-lizatsiyasi, madaniyati va adabiyotining rivojida ildizlari uzoq o'tmish, mifologiya va folklorga borib taqaluvchi fantastika muhim o'rin tutadi. Asrlar davomida rivojlanib kelish barobarida fan-texnika taraqqiyoti sharoitida yangi bir daraja, zamonaviy shakl va mazmunga ega bo'lib kelayotgan fantastikaga doir adabiy asarlarni o'rganish, ulardan jamiyat ma'rifati va ma'naviyatini yuksaltirishda foydalanish dolzarb vazifalardandir.

Dunyo adabiyotshunosligida turli xalqlar, adabiy jarayonlarga mansub adiblar asarlarining komparativistik tahlili orqali ular ijodining mushtarak va original aspektlarini ochib berish, bunda adabiy ta'sirning o'rnini aniqlash tadqiq etilishi zarur bo'lgan asosiy ilmiy muammolardandir. Zamonaviy globallashuv, axborot texnologiyalari davrida adabiy jarayon chegaralarining yo'qolib borishi va o'zaro adabiy ta'sirlanishning kuchayishi fonida qayd etilgan ilmiy muammoni fun-damental, kompleks tadqiq qilish zaruriyati yanada kuchayib bormoqda.

O'zbek adabiyotshunosligida avvalgi davrda adiblar ijodini asosan g'oyaviy-badiiy jihatlardan tadqiq qilish ustuvorlik qilgan bo'lsa, mustaqillik davriga kelib, adiblarimiz ijodini G'arb yozuvchilari asarlari bilan adabiy ta'sirlanish va o'ziga xoslik paradigmalari orqali o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu borada tadqiqotchilarni kutayotgan mavzular talaygina ekani ham ayni haqiqatdir. Davlatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek, "O'zbek zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish katta ahamiyatga ega"¹. Bu borada amerika va o'zbek adabiyotida shakllangan adabiy an'analarni qiyosiy tahlil qilish, o'zbek va amerika adabiyotida yaratilgan yorqin obrazlarni o'rganish muhim hisoblanadi. Jahon adabiyotida har bir jumladan unumli foydalangan holda qisqa va mazmunli hikoyalar yozgan yetuk ijodkorlardan biri Ernest Heminguey hikoyalarini o'zbek hikoyanavislik maktabining yirik namoyondasi Abdulla Qahhor hikoyalari bilan taqqoslagan holda o'rganish va ularning obrazlarini qiyosiy-tipologik tahlil qilish dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-son "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi // Xalq so'zi, 2018-yil 8-avgust.

masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risidagi farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Asar qahramonlarini o‘rganishda qi-yosiy-tipologik yondashuv anchadan buyon adabiyotshunoslar e‘tiboridagi murak-kab masalalardan biri hisoblanadi. U haqda ilk kuzatishlar olib borgan N.G. Chernishevskiy² L.N. Tolstoy ijodida tipologik tahlilning rang-barang shakllari mavjudligini ta‘kidlab o‘tgan edi. Uning obrazlar tahliliga nisbatan “ijodiy talantga kuch bag‘ishlaydigan sifatlar ichida eng muhimi” degan bahosi hali ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Keyinchalik bu tushuncha adabiyotshunoslik madaniy-tarixiy maktabining psixologik yo‘nalishi vakillari, jumladan, A. Potebnya tomonidan ilmiy sohaga olib kirildi.

Badiiy asarlardagi “estetik reaksiya”, katarsis, emotsional-obrazli mazmun masalalarini ishlab chiqishda yangi sahifa ochgan L.S. Vigotskiy³ til va tafakkur, adabiyot va jamiyat, ijod va idrok psixologiyasining o‘zaro munosabati bo‘yicha qimmatli kuzatishlar qoldirdi. His-tuyg‘ularning badiiy fantaziya obrazlariga aylanishi borasidagi qarashlari olimning “har qaysi davr san‘at tomonidan saralab olinadigan o‘z psixologik gammasiga ega”ligi haqidagi mulohazasida umumlashgan.

Badiiy tipologik tahlilning samarali mahsulini, avvalambor, D.S. Lixachyov, L.Y. Ginzburg, A.V. Karelskiy, N. V. Zababurova⁴ singari adabiyotshunoslarning tarixiy-qiyosiy xarakterdagi ishlarida ko‘ramiz. Qayd etish kerak, g‘arb adabiyotini o‘rgangan tadqiqotchilar (A.V. Karelskiy, N.V. Zababurova, N.S. Leytes) so‘z san‘atidagi psixologizm tushunchasining ko‘p qirraliligi va uni o‘rganishda asarni har tomonlama tahlil qilishni taqozo etuvchi sinxron hamda diaxron yondashuvlar birikuvidan foydalanish zarurligi haqida fikr yuritadilar.

O‘zbek olimlaridan A. Rasulov, B. Nazarov, U. Normatov, H. Umurov, H. Boltaboyev, B. Yo‘ldoshev, Q. Yo‘ldoshev, D. Quronov, I. Yoqubov, A. Erkinov, B. Karimov, U. Jo‘raqulov, Q. Qahramonovlarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida, monografiya va maqolalarida, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga oid darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarida yozuvchilarning ijod laboratoriyasi, ijodkor badiiy olami kabi masalalarda ko‘lamdor fikr-mulohazalar

² Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Н. Толстого. Собр. соч.: В 15 т. Т. 2. – М., 1949. – С. 505.

³ Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб.: Азбука, 2000. – С. 93.

⁴ Лихачёв Д.С. Человек в литературе Древней Руси. – М.: Наука, 1970. – С. 178; Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – М.: Intrada, 1999. – С. 415; Карельский А.В. От героя к человеку (Развитие реалистического психологизма в европейском романе 30-60-х годов XIX в.). – Вопросы лит. – 1983. – № 9. – С. 81–122; Забабура Н.В. Французский психологический роман (эпоха Просвещения и романтизм). – Ростов-на-Дону: Изд. Ростовск. ун-та, 1992. – С. 223.

bildirilgan⁵. Shuningdek, o‘zbek adabiyotshunosligida ijodkorlarning tipologik obrazlarga munosabati muammosi, uning tamoyil va shakllari, ruhiy tahlil va ong oqimi, ayniqsa, ijod psixologiyasi va yozuvchilarning inson ruhiyatini tasvirlash bobidagi mahorati D. Quronov, A. Xolmurodov, U. Jo‘raqulov, T. Jo‘rayev, kabi olimlarning tadqiqotlarida, P. Kenjayeva, M. Boboxonov⁶ kabi tadqiqotchilarning ishlarida maxsus o‘rganilgan.

Muammoga bunday yondashish juda qiyin, biroq ancha samarali. Demak, ko‘p asrlilik adabiy merosni o‘zlashtirishdek murakkab va chigal jarayonda hikoya qahramonlarini qiyosiy aspektda o‘rganish nazariy va tarixiy-konkret muammo sifatida olimlar tomonidan qayta tushunib yetilmoqda. Markazida bor-bo‘yicha inson turgan, ko‘p qirrali, intellektual va badiiy murakkablashgan asarlar haqli ravishda komparativistika o‘zanida ko‘zdan kechirilmoqda.

Mazkur dissertatsiyada yuqoridagi ishlardan farqli o‘laroq mavzu ilk bor monografik yo‘sinda o‘rganilmoqda.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasining “Filologik komparativistika va tarjima masalalari” ilmiy-nazariy muammolari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlarini qiyosiy tipologik aspektda tizimli ilmiy asoslash.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalaridagi qahramonlar tipologiyasini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning badiiy xarakterlarini ochib berish; hikoyalarda qahramonlarning qiyosiy tipologik aspektda ifodalanish imkoniyatlarini aniqlash va ularning uslubiy xususiyatlarini asoslash;

xorijiy tajribalar asosida Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlarini qiyosiy tahlil qilishning ilmiy-metodik mezonlarini ishlab chiqish;

qahramonlar xarakterlarini qiyosiy tipologik yondashuv orqali tizimli tavsiflash hamda ularning umumiy va farqli jihatlarini ko‘rsatib berish;

qiyosiy tipologik aspektda qahramonlarni o‘rganish orqali badiiy asarlar mazmunida ruhiy individuallikni yoritish usullarini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdulla Qahhorning “Anor” va Ernest Hemingueyning “Bizning davrimizda” to‘plamlariga kiritilgan hikoyalari tanlandi.

⁵ Umurov H. Tahlil san’ati. – T.: G‘.G‘ulom, 1978; Quronov D. Cho‘lpon va Freyd // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 1991. – №6. – B. 50–51; Boltaboyev H. Fitratning ilmiy merosi. – T.: Fan, 1996; Jo‘raqulov U. Fitratning tadqiqotchilik mahorati. – T.: O‘zMU, 2003; Yo‘ldoshev B. O‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligida uslub va mahorat muammolari: Filol. fan. d-ri ... diss. – T.: A. Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2003; Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: Fan, 2006; Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2007; Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – T.: Fan, 2006; Normatov U. Ijod sehri. – T.: Sharq, 2007; Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi, 2007; Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. – T.: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.

⁶ Quronov D. Cho‘lpon nasri poetikasi. – T.: Sharq, 2004. – 288 b.; Xolmurodov A. Odil Yoqubov romanlarida psixologizm: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – T., 1991. – 53 b.; Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. – T.: Fan, 2006. – 203 b.; Jo‘rayev T. Ong oqimi. Modern. – Farg‘ona, 2009; Kenjayeva P. Hozirgi o‘zbek hikoyalari qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2008. – 23 b.; Boboxonov M. Hozirgi o‘zbek qissachiligida psixologizm: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2012. – 27 b.

Tadqiqotning predmetini Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlarini qiyosiy tipologik aspektda tekshirish, har ikki ijodkorning turli to'plamlarga kiritilgan boshqa hikoyalarda uchrovchi tipologik obrazlar tahlili masalalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, sistem tahlil, kontekstual tahlili, differensial-semantik tahlil, distributiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlari xarakteri va asar kompozitsiyasidagi o'rni asoslanib, qahramonlar ruhiy individullashuvining realistik vaziyatlar asosida takomilga erishishishi ijodkorlar uslubiga xos qisqa narrativ, portretlarning aniqligi, realistik tasvir kabi xususiyatlar orqali dalillangan;

badiiy obraz yaratish tamoyillari asosida milliy nasrimizda shakllangan xarakter yaratish usullarining jahon adabiyotiga xos reminssensiya, adabiy ta'sir va tipologiya singari komparativistikaga doir belgilari ochib berilgan;

obrazlar tizimidagi xarakterlar ruhiy individualligini ta'minlovchi portret, peyzaj, narsa-buyum kabi detal; tush motivi, ichki monolog, ong oqimi kabi ruhiy tahlil vositalarining adabiy qahramonlar dinamik va turg'un holatlarini ta'minlashdagi original va mushtarak aloqasi dalillangan;

hikoyalarda qahramonlar vositasida muallifning badiiy maqsadi: muallif va qahramonlar dunyoqarashi, ichki monologlar, muallif mushohadasi kabi ongosti jarayonlari, shaxsiy-psixologik kechinmalari aks etganligi psixoanalitik metod asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qahramonlar ruhiyatini tahlil qilish adabiyotshunoslik doirasida tadqiq etilgach, roman janridagi badiiy psixologizmning tutgan o'rni ilmiy jihatdan aniqlangan, zamonaviy nazariy qarashlarni psixoanaliz va kollektiv ong osti g'oyalari bilan boyitish zarurligi asoslab berilgan;

milliy nasrimizda psixologik xarakter yaratish usullari jahon adabiyotidagi tajribalar bilan qiyoslangan, natijada reminssensiya, adabiy ta'sir va tipologiya kabi komparativistik belgilarning qo'llanish imkoniyatlari belgilangan;

A. Qahhor hamda E. Hemingueyning hikoyalardagi ruhiy obrazlar tizimi tahlil qilinib, qahramonlar individualligini ta'minlovchi portret, peyzaj, predmet, tush, ichki monolog va ong oqimi kabi vositalarning qo'llanish xususiyatlari ochib berilgan;

hikoya poetikasida ong osti tamoyilining ahamiyati tahlil qilinib, "O'g'ri" hikoyasidagi bosh obraz "Bizning davrimizda" hikoyasidagi qahramon ong osti hosilasi sifatida yuzaga kelgani isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillarning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixoanalitik, struktural-analiz tadqiq usullari vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy o‘zbek romanlarining tarkibi va tabiati, obrazlar tizimi haqidagi ilmiy tasavvurlarni chuqurlashtirish va yaxlit tizimga solish, badiiy ijodda psixonaliz va ong osti hodisalarining poetik qirralarini jahon adabiyotshunosligidagi falsafiy-estetik qarashlar asosida tasniflashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida yoshlarga adabiy-nazariy ma’lumotlar berishda, o‘zbek va jahon nasri namunalarini qiyosiy o‘rgatishda, darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, adabiyotshunoslikka oid izohli lug‘atlarni takomillashtirishda foydalanish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlarining qiyosiy tipologik tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlari ruhiy holati va asar kompozitsiyasidagi o‘rni asoslanib, hikoyalarda qahramonlar ruhiy individullashuvining realistik vaziyatlar asosida takomilga erishuvi ustuvor ekanligi ijodkorlar uslubining o‘ziga xos konsepsiyasiga asosidagi yondashuvlar bilan boyitilishiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 15-maydagi 01/4-2746-son ma’lumotnomasi). Natijada sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma’rifiy mavzularning XX asr o‘zbek she’riyatida yoritilishi, badiiy reallikka doir obrazlarning ruhiyat ifodasidagi o‘rni muammosiga doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo‘lgan;

badiiy obraz yaratish tamoyillari asosida milliy nasrimizda shakllangan xarakter yaratish usullarining jahon adabiyotida erishilgan yutuqlar bilan munosabatga kirishish jarayonidagi reminssensiya, adabiy ta’sir va tipologiya singari komparativistikaga doir belgilari isbotlanganiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 15-maydagi 01/4-2745-son ma’lumotnomasi). Natijada platforma nazariy bilimlar, zamonaviy hikoyachilik va qiyosiy adabiyotshunoslikka doir ma’lumotlar bilan boyitilgan;

obrazlar tizimidagi xarakterlar ruhiy individualligini ta’minlovchi portret, peyzaj, narsa-buyum kabi detal; tush motivi, ichki monolog, ong oqimi kabi ruhiy tahlil vositalarining adabiy qahramonlarning dinamik, turg‘un holatlarini ta’minlashdagi aloqasi ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston” telekanalining “Assalom, O‘zbekiston!” ko‘rsatuvi, “Munosabat” tok-shousi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (“O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 12-

noyabrdagi 01-44-421-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ko'rsatuvlar mazmuni ijodkorlar hayoti va ijodiga doir ilmiy materiallar bilan boyitilgan.

Hikoya qahramonlar negizida muallifning badiiy maqsadi: muallif va qahramonlarning ruhiy dunyosi, ongosti jarayonlari, shaxsiy-psixologik kechinmalari aks etganligi psixoanalik metod bilan boyitilishiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 15-maydagi 01/4-2746-son ma'lumotnomasi). Natijada sharq adabiyotiga xos ijtimoiy-falsafiy, diniy-ma'rifiy mavzularning XX asr o'zbek she'riyatida yoritilishi, badiiy reallikka doir obrazlarning ruhiyat ifodasidagi o'rni muammosiga doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shulardan 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (shu jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va tadqiqot tuzilishi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Badiiy asar qahramonlarining qiyosiy-tipologik tahlili**” deb nomlanib, 1.1-paragrafida “*Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlarning qiyosiy tipologiyasi*” tadqiq qilingan. Har bir yozuvchi ijodi va o'z oldiga qo'ygan g'oyaviy maqsad hamda vazifalardan kelib chiqqan holda ma'lum bir janr doirasidagi asarlari orqali o'z badiiy olamini yaratadi. Xuddi shu pozitsiyadan kelib chiqqan holda biz Ernest Heminguey va Abdulla Qahhor hikoyalari hajman qisqa bo'lsa-da, mazmunan g'oyat keng ekanligi ushbu adiblarning g'oyaviy konsepsiyalari va badiiy olamining ehtiyojlari, shuningdek, hikoya janrining ushbu ehtiyojlarni qondirish uchun bera oladigan imkoniyatlari bilan bog'liq degan fikrga tayanamiz. Har ikki ijodkor ham dunyoning eng sinovli bosqichlariga guvoh bo'lishgan. Adabiyot sohasidagi ko'plab mukofotlar sovrindori E. Heminguey XX asrdagi fojiali voqealar (Birinchi jahon urushi, Ispaniya fuqarolar urushi, Ikkinchi jahon urushi) davrida yashab o'tgan, ayni davrlarda A. Qahhor ham

o'sib-ulg'aygan. Shu bois bu yozuvchilar asarlarining intertekstualligi, adabiy asar tahliliga avtobiografik yondashuv tahliliga asoslanib olib borilishi g'oyat muhimdir. Masalan,

E. Heminguey va A. Qahorning urushdan keyingi hikoyalarida (1930, 1950-yillar) obrazlar o'xshashligining namoyon bo'lish muammosi o'rganilishi zarur. Har ikki ijodkorlarning qahramonlari qahramonlik, nafaqat urush paytida, balki tinchlik davrida ham qahramonlik ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxsning fazilatlarini tavsiflaydi, shuning uchun ko'plab qahramonlarning xarakteri qiyosiy tahlil obyekti bo'la oladi. E. Hemingueyning urushdan keyingi hikoyalari ("Yaxshi sher", "Vafodor buqa", "Ko'prikdagi chol", "Askar uyi") turli hayotiy sharoitlarda kuch-quvvat sinovidan o'tgan obrazlardir. Abdulla Qahhor qahramonlari ham maishiy muammolar changalidan qutulib, turli global muammolar bilan to'qnashadilar. Har ikki ijodkor asarlarining kompozitsiyasi, syujetlarida ayrim o'xshashliklar ko'zga tashlansa-da, ular yashagan jamiyatlar va madaniyatlar turfa xilligi o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Shu nuqtayi nazardan, ilmiy jihatdan bu ikki adibning adabiy-nazariy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish juda muhim ko'rinadi.

A.Qahhor va E.Heminguey nafaqat o'zbek va amerika zamonaviy nasrining, balki jahon zamonaviy adabiyotining asoschilari va yetakchi nosirlaridir. Ular chuqur hissiy va individual mualliflar bo'lib, kunning ijtimoiy va siyosiy muammolari haqida yozadilar. Ularning jamiyatlarida hukmron bo'lgan ijtimoiy-siyosiy sharoitlar ma'lum darajada o'xshash emas edi va shuning uchun ham har ikki adibning asarlarida siyosiy jihatdan o'xshash hikoyalarni uchratish oson emas. Ular asarlarining bu jihatini qiyosiy tadqiq qilish muhimdek tuyuladi. Qiyosiy tadqiq bu ikki adibning yangi mavzuga, yangilikka, yangi uslubning xususiyatlariga bog'lanish sabablarini aniqlash, ularning novatorlik uslubidagi aloqa nuqtalari va farqlarini aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarning asosida turuvchi tahlil usullaridan biri avtobiografik metoddur. Bu usul orqali qiyosiy tahlillar yana-da aniqroq xulosalar olinishiga yordam beradi. Ma'lumki, dunyoda juda ko'p millatlar va xalqlar yashaydi. Har bir millat o'z an'analari, mentaliteti va dunyoqarashiga ega. Agar biz biror bir xalqning dunyoqarashi yoki mentaliteti bilan tanishmoqchi bo'lsak, albatta, bu xalqning yozuvchilari ijod qilgan adabiyotiga murojaat qilamiz. Chunki yozuvchilar asarlarini o'z xalqlari dunyoqarashidan kelib chiqib yozadilar. Shu boisdan, har bir millat adabiyoti o'ziga xoslikka egadir. Shu o'rinda badiiy adabiyot ijtimoiy ong shakli sifatida jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida muhim o'rin tutishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Har bir davrda yaratilgan badiiy asar shu davr hayotining muhim qirralarini qamrab oladi. Inson ma'naviy olamini kashf etishda so'z san'ati, jumladan, badiiy adabiyotning o'рни beqiyos. Zotan, adabiyot inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, tafakkurini, ma'naviy dunyosini boyitishda eng kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

1.2-paragraf ***"Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida asar qahramonlarining qiyosiy o'rganilishi"*** tadqiqiga bag'ishlangan. L.S. Vigotskiy til va tafakkur, adabiyot va jamiyat, ijod va idrok xarakter yaratishdagi o'zaro munosabati bo'yicha qimmatli kuzatishlar qoldirdi. His-tuyg'ularning badiiy fantaziya obrazlariga aylanishi borasidagi qarashlari olimning "har qaysi davr san'at tomonidan saralab

olinadigan o‘z psixologik gammasiga ega”ligi haqidagi mulohazasida umumlashgan⁷. Empirik metod kuzatish va tajriba o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lib, rejalashtirish, tavsiflash, statistika kabi bosqichlardan iborat. Nazariy metodlarga esa analiz, sintez, abstraksiya, induksiya, deduksiya, analogiya modellashtirish kabilar mansubdir. Nazariy metodlarning barchasi qiyoslash, umumlashtirish, tasniflash (klassifikatsiya), baholash kabi bosqichlardan o‘tadi.

Demak, ayon bo‘ladiki, qiyoslash barcha nazariy ilmiy xulosalarning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun qiyosiy tahlilni amalga oshirishdan oldin ilmiy tadqiqot metodlarini yaxshilab o‘rganish, ularning qiyoslashdagi rolini tushunib yetish kerak. Nazariy metodlarni qisqagina tushuntiramiz: Analiz – tahlil, sintez – xulosalash, abstraksiya – mavhumlashtirish, induksiya – umumiylikdan xususiylikka o‘tish, deduksiya – xususiylikdan umumiylikka siljish, analogiya – o‘xshash xususiyatlar tahlili, modellashtirish – model yaratish (prototip yaratish: masalan, olamning badiiy modeli, darslikning elektron modeli). Bu nazariy metodlarning har biri qiyoslash bosqichidan o‘tishi mumkin. Qiyosiy tahlilda analiz, sintez, deduksiya va induksiya kabilar zarur unsurlar, ularsiz qiyosiy tahlilni amalga oshirish mumkin emas. Masalan, deduksiya – hodisalarni tashkil etuvchilarga ajratish jarayoni, qiyosiy tahlil esa ana shu jarayon natijalarini ham o‘z ichiga oladi. Demak, qiyosiy tahlil voqelik hodisalarini bilish va o‘zgartirishga qaratilgan barcha nazariy metodlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, ilmda qiyosiy sintez, qiyosiy induksiya, qiyosiy deduksiya kabi tushunchalar mavjud. Masalan, qiyosiy sintez – hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash jarayonidir. Bunda ularni tashkil etgan unsurlarida bilimlarni integratsiyalash natijalari asos qilib olinadi. Mohiyatan, qiyosiy sintez “qiyosiy tahlil obyektlari o‘rtasidagi farq nimada?” degan savolga javob beradi. Qiyosiy induksiya – xususiydan umumiy tomon harakat, qiyoslanadigan adabiy hodisalarning o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlash jarayonidir. Qiyoslash metodologiyasida qiyosiy-tarixiy va chog‘ishtirish (yoki qiyosiy-chog‘ishtiruv) metodi eng asosiy metodlardan hisoblanadi. Bu metodlar mohiyatan bir-biriga yaqin, ammo farq qiladi. Qiyosiy-tarixiy metod adabiy hodisalarning umumiy va xos tomonlarini tarixiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘liqlikda qiyoslash usulidir. Qiyosiy-tarixiy metod asosidagi ilk nazariy fikrlar Arastuning “Poetika” asarida bayon qilingan. Faylasuf adabiyotni epos, lirika, drama kabi uch turga ajratish jarayonida ularni qiyoslaydi va mohiyatini tushuntirib beradi. Qiyosiy-tarixiy metod haqida ilmiy adabiyotlarda juda ko‘plab nazariy fikrlar bayon qilingan. Jumladan, adabiyotshunos B. Karimov qiyosiy-tarixiy metoddan foydalanib, quyidagi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot olib borish mumkinligini ta’kidlaydi:

- dunyo adabiyoti durdonalari yoki milliy adabiyotning go‘zal namunalari o‘zaro qiyoslanadi;
- adabiy asarlar yaratilgan davriga ko‘ra taqqoslab o‘rganiladi;
- bir milliy adabiyot vakillarining qiyos uchun asosli asarlari o‘rganiladi;
- milliy adabiyot namunalari dunyo adabiyoti kontekstida tekshiriladi;

⁷ Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб.: Азбука, 2000. – С. 93.

- adabiy jarayon yoki adabiyot tarixida mavjud adabiy hodisalarning farqli va o‘xshash qirralari tadqiq qilinadi;
- mavzu yoki ilmiy muammo nuqtai nazaridan o‘zaro yaqin bo‘lgan adiblarning asarlari tekshiriladi;
- adabiy-estetik evolyutsiyani kuzatishda ma’lum bir adib tomonidan yozilgan asarlar obyekt qilib olinadi ⁸.

Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida asar qahramonlarining qiyosiy o‘rganilishi mavzusi zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot yo‘nalishi turli milliy adabiyotlar o‘rtasidagi badiiy, ijtimoiy va falsafiy aloqalarni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Qahramonlar tahlili asarning mazmun-mohiyatini, uning madaniy va tarixiy kontekstini ochib berishda o‘ziga xos kalit rolini o‘ynaydi. Shu sababli dunyo va o‘zbek adabiyotida qahramonlarning qiyosiy o‘rganilishiga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan.

Adabiyotshunoslikda asar qahramonlarini qiyosiy o‘rganish usuli har bir adabiy obrazning mantiqiy va badiiy mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi. Jahon adabiyotshunosligida, masalan, Hamlet va Don Kixot kabi obrazlar tahlil qilinib, ular orqali inson tafakkuri, iroda va ijtimoiy muhitning murakkab jihatlari yoritiladi. Bu obrazlarning badiiy yondashuvdagi o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatish orqali madaniy an‘analarning xilma-xilligi hamda ularning yagona insoniy qadriyatlarga asoslanganligi aniqlanadi. Shu yondashuvni O‘zbek adabiyotiga qo‘llash, Alpomish yoki Otabek singari qahramonlarni turli davr va hudud obrazlari bilan qiyoslash, o‘zbek milliy xususiyatlarini dunyo miqyosida yanada aniqroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. O‘zbek adabiyotshunosligida bu usul muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Xususan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asaridagi Otabek obrazi va Lev Tolstoyning “Anna Karenina” asaridagi Konstantin Levin qiyoslanganda, ularning ijtimoiy mas’uliyat va ichki ziddiyatlari bir-biriga o‘xshashligi ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, har ikki qahramonning turli madaniy sharoitlarda shakllanganligini hisobga olish o‘zbek adabiyotidagi milliy o‘ziga xoslikni chuqurroq yoritishga imkon beradi. Bu yondashuv orqali xalqaro adabiy aloqalar mustahkamlanib, milliy adabiyotlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikning nazariy asoslari yaratiladi.

Jahon va o‘zbek adabiyotlarida qahramonlar orqali yoritilgan mavzular o‘ziga xos uslub va yondashuvlar bilan boyitilgan. Hemingueyning minimalistik yondashuvi qahramonning ichki olamini anglash uchun o‘quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Qahhor esa ijtimoiy-tanqidiy uslub orqali jamiyatdagi muammolarni yaqqol ko‘rsatadi va shu orqali o‘z asarlarini o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi hujjatga aylantiradi. Ushbu qiyosiy o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki, adabiyotda qahramonlar o‘z milliy o‘ziga xosligini saqlagan holda, insoniyatga xos universal mavzularni ham yoritishga xizmat qiladi.

Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey o‘z asarlarida obraz yaratish mahorati bilan jahon va milliy adabiyotda alohida o‘rin tutadi. Har ikki ijodkor o‘z asarlarida inson tabiati va jamiyat muammolarini badiiy jihatdan o‘ziga xos tarzda aks ettirgan. Ularning qahramonlari voqelikni turlicha talqin qilsa-da, ma’naviyat va hayotiy

⁸ Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – T.: Muharrir, 2011. – B. 74.

kurash masalalarida yaqinlikka ega. Bu esa adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ularda mavjud umumiy xususiyatlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Abdulla Qahhor hikoyalari milliy realizm an'alariga asoslanadi va o'zbek xalqining kundalik hayotini haqqoniy tasvirlashga qaratilgan. Uning qahramonlari oddiy, hayotiy, ammo murakkab ijtimoiy ziddiyatlarni boshdan kechiruvchi shaxslardir. Masalan, "Nurli cho'qqilar" hikoyasi orqali yozuvchi inson ma'naviy o'sishi va hayot sinovlariga qanday bardosh berishi kerakligini tasvirleydi. Hikoya qahramonlarining har biri o'z davrining muhim masalalarini aks ettiruvchi shaxsiy kechinmalari bilan ajralib turadi. Yozuvchi qahramonlar ruhiy dunyosini chuqur tahlil qilmasdan, ularning tashqi faoliyati orqali ichki kechinmalarini ifoda etadi. Bu jihatdan Qahhorning ijodi milliy adabiyotimizda realizmning yorqin namunasi hisoblanadi.

Ernest Xeminguey ijodida esa qahramonlarning ekzistensial kurashlari asosiy mavzu sifatida gavdalanadi. Xeminguey o'zining "aysberg prinsipi" orqali qahramonlarning tashqi harakatlaridan ichki kechinmalarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, "Chol va dengiz" qissasida bosh qahramon Santiago hayot-mamot kurashi orqali insonning tabiat bilan bo'lgan muvozanatini ramziy ifodalaydi. Asarda inson kuchli irodasi va tabiat kuchlari oldidagi o'zligini bir vaqtda aks ettiradi. Xemingueyning uslubi qisqa va sodda ifoda vositalaridan iborat bo'lsa-da, o'quvchini chuqur badiiy tahlilga chorlaydi. Ikkala yozuvchining qahramonlari ham ijtimoiy sharoit va shaxsiy sinovlar o'rtasidagi kurash orqali rivojlanadi. Abdulla Qahhor hikoyalarda qahramonlarning hayotiyliigi milliy qadriyatlar va kundalik voqealar orqali ochib berilsa, Xeminguey qahramonlarida ekzistensial masalalar yetakchi mavqe tutadi. Masalan, Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasi o'zbek jamiyatining ma'naviy jihatlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Xemingueyning "Chol va dengiz" asari global mavzularni ko'taradi va insonning universallik tamoyillariga asoslanganligini ko'rsatadi. Uslubiy jihatdan Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey asarlarida muhim farqlar mavjud. Qahhor o'z hikoyalarda milliy qadriyatlarga asoslangan tilni qo'llab, badiiy tasvirda sodda, ammo kuchli ifoda vositalaridan foydalanadi. Shu bilan birga, Xemingueyning uslubi tejankor va "telegraf usuli" deb nomlanadigan qisqa jumlar orqali o'quvchini tahlil qilishga undaydi. Xemingueyning qahramonlari ramziy va falsafiy ahamiyatga ega bo'lsa, Qahhor o'z qahramonlarini ijtimoiy hayotning real voqeliklariga asoslangan holda yaratadi.

Adabiy uslublar va qahramonlarning mohiyatini tahlil qilganimizda, bu ikki yozuvchi asarlarida davr va jamiyatning o'ziga xos ko'rinishi aks etganligini ko'rish mumkin. Abdulla Qahhorning hikoyalari milliy ruhni aks ettirishga xizmat qilsa, Xemingueyning asarlari insoniyatning global muammolariga yechim izlaydi. Shu bois Qahhor va Xeminguey ijodini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki yosh avlodning ma'naviy kamolotida ham katta ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey o'z asarlarida obraz yaratishning turli usullarni qo'llashiga qaramay, ularning ijodida insoniyatga xos umumiy masalalar yaqqol ko'zga tashlanadi. Qahhorning realistik hikoyalari o'zbek xalqining kundalik hayoti va milliy qadriyatlarini aks ettirgan holda, milliy adabiyotda betakror o'rin egallaydi.

Xeminguey esa o‘zining universal mavzularga bag‘ishlangan asarlari orqali jahon adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Xulosa qilib aytganda, jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida asar qahramonlarining qiyosiy tahlili milliy va xalqaro adabiyotlarning o‘zaro boyishida muhim vosita hisoblanadi. Bu boradagi ilmiy izlanishlar badiiy obrazlarning mazmun va mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qilib, adabiyotshunoslik fanining yangi imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili**” deb nomlangan bo‘lib, 2.1-paragrafda “*Abdulla Qahhor va Heminguey hikoyalari qahramonlarining o‘ziga xos jihatlari*” masalasi tadqiq qilingan. Kichik hikoyalarda tugallangan syujet berish, puxta kompozitsiya tuzish, obrazlarni qisqa, aniq, jonli tavsiflash, tilda lo‘nda, ixchamlikka erishish Abdulla Qahhorni boshqa yozuvchilardan ajratib turadi. Abdulla Qahhor badiiy asarda so‘zning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini to‘g‘ri tushunadi. Hikoyalarda tilning soddaligi, ixchamligi, siqqligi kishi e‘tiborini tortadi. Ammo qissadan hissa chiqarish imkonini hamisha kitobxonga qoldiradi.

E. Heminguey kitoblarining mavzulari, uslubi va muhitini aynan qahramon turi, uning hayotiy tanlovi, qahramon obrazining tuzilishi ko‘p jihatdan belgilaydi. Agar yozuvchi ijodining oldingi bosqichida (30-yillar) qahramonning asosiy turi umumiy ishga qo‘shilgan yoki buning zarurligini anglagan shaxs bo‘lgan bo‘lsa (“Bo‘lishi kerak va yo‘q”, “Qo‘ng‘iroq kim uchun chalinadi” romanlari, “Beshinchi ustun” spektakli), keyin 40–50-yillarda muallif individualizm-kollektivizm dilemmasi yechimini qayta ko‘rib chiqadi. “Marhum” Heminguey kitoblarining o‘ziga xos qahramoni – bu turli xil hayotiy sharoitlarda kuch sinovidan o‘tgan ijodiy shaxs. Bu borada E. Hemingueyning 40–50-yillardagi asarlarida ikki xil qahramonni ajratish mumkin. Ulardan biri ijtimoiy-tarixiy to‘qnashuvlarda sinovdan o‘tgan shaxs (Tomas Gudson, Richard Kantvell), ikkinchisi muallif tomonidan kengroq ijtimoiy kontekstdan “cheklangan” (Devid Birn, chol Santyago, “Har doim siz bilan bo‘lgan bayram” va “To‘g‘ri, kunning birinchi yorug‘ida”). Shunga ko‘ra, qahramonning badiiy obrazining tuzilishi va yozuvchi asarlarining uslubi har xil. Bu borada ham uni Abdulla Qahhor bilan qiyoslash mumkin. A.Qahorning nasriy mahorati uning hayotlik davridayoq ko‘plab zamondoshlari, adabiyotshunos olimlar, adabiy tanqidchilar, adabiyot ixlosmandlarining e‘tiborini tortdi. Xususan, A.Qahorning o‘zbek nasri rivojida o‘rni va hikoyanavislik mahoratiga H.Olimjon yuksak baho bergan edi: “So‘nggi yillarda nasrchilik bobida ancha yosh talantlar yuzaga chiqdi. Bunda o‘zining katta hunarmandligi va go‘zal tili bilan yosh hikoyanavis Abdulla Qahorning xizmati katta. Bizning yosh yozuvchilarimiz ichida Abdulla Qahhor qadar boy va chiroyli tilga ega bo‘lgan yozuvchi yo‘q deyish mumkin”.

Darhaqiqat, adabiyotimiz tarixida betakror siymolardan biri Abdulla Qahhordir. Bu zot adabiyotga kirib kelgan damlaridanoq so‘z sehgari sifatida e‘tirof etilgandi. Abdulla Qahhor jahon adabiyotida ham eng taniqli yozuvchilar safida turadi. A.Qahhor asarlari rus, ukrain, belorus, qozoq, qirg‘iz, tojik, qoraqalpoq kabi tillarga tarjima qilingan. Uning ayrim hikoyalari esa ingliz, nemis, fransuz, chex,

polyak, bolgar, rumin, arab, hind, vetnam tillarida chop etilgan. Atoqli adibimiz Abdulla Qahhorning bizga qoldirgan badiiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning cho'ng va zargarlik bilan yaratilgan har bir asarida boqiy haqiqat muhri va shukuhi bor. Bunday zalvorli asarlar, shubhasiz, yosh avlod ong-u tafakkurini boyitishda ma'naviy kuch-qudratga ega bebaho merosdir. Yozuvchining o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi e'zoz bilan tilga olinmoqda. Taassufki, Abdulla Qahhor ijodi hamisha ham erkin va tizginsiz bo'lmagan. Undan farqli o'laroq Heminguey o'zini deyarli barcha mavzularda sinab ko'ra olgan. Hemingueyning "kech" asarlari qahramonlari ekzistensial shaxs bilan tipologik qarindoshlikni ochib beradi, bu turli darajada yo'qolgan avlod adabiyotidagi (R. Aldington, E.M. Remark va boshqalarning asarlarida) boshqa personajlarga xosdir. Heminguey qahramonining dunyoqarashidagi 20-yillardan 50-yillargacha bo'lgan o'zgarishlar asosan yozuvchining ruhiy izlanishlari ta'sirida sodir bo'ladi. Bu o'zgarishlar bir necha jihatdan borliq falsafasi bilan XX asrda sodir bo'lgan o'zgarishlarga o'xshaydi. Bu jihatdan A. Qahhorning qahramonlari ancha aniq va real shaxslardir. Abdulla Qahhor qahramonlari sodda, jaydari va har kun bizga yo'liqishi mumkin bo'lgan kishilar. U qahramonlarining ruhiy iztiroblari va ichki olamini chuqur tasvirlashga ehtiyoj sezmaydi. Qahhor vaziyatlarda insoniylik qiyofasini aniqroq ko'rish mumkinligini o'z asarlari orqali isbotlab beradi. Bu jihatdan uning ijodini tanqidiy realizmning yorqin namunasi sifatida baholash mumkin. Gap biror ijodkorlarning obraz yaratish mahorati haqida borar ekan, bu borada nazariy ma'lumotlarni tahlil qilish o'rinlidir. Masalan, nazariy yoritishda qahramon muammosi MDH adabiyotshunosligida noaniq hal qilingan. Formalistlar uchun (B.V. Tomashevskiy) qahramon faqat "motivlarni guruhlash va birlashtirishning oddiy usuli"⁹. G.Pospelov adabiy asar qahramonlari bilan ularning personajlarini farqlaydi ("qahramonlar ortida", G.Pospelov nuqtai nazaridan, "adabiyotda ularning ijtimoiy xarakterlari bor"). Qahramonlar G.Pospelov tomonidan go'yo adabiy asarning sahnalari orqasida joylashtirilgan, bu yerda qahramonlar o'zlarining "odatiy qahramonlari"ga katta yoki kichikroq "sodiqlik" ko'rsatadilar. Realist yozuvchi G.Pospelovning konsepsiyasiga ko'ra, "qahramonlarni o'z mamlakati va davrining ijtimoiy munosabatlaridan kelib chiqqan ijtimoiy xarakter xususiyatlariga muvofiq harakat qilishga (xohlash, harakat qilish, o'ylash, his qilish, gapirish) majburlaydi"¹⁰. Bu tushuncha biz uchun ziddiyatli ko'rinadi. Biz S.G. Bocharovning nuqtai nazarini baham ko'ramiz, u bu holatda xarakterni asar tuzilishidan tashqarida olib bo'lmaydi, qahramon o'zining mazmunli ma'nosini yo'qotadi. Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalari o'qiganda ham paydo bo'ladi. Kichik hikoyalarda tugallangan syujet berish, puxta kompozitsiya tuzish, obrazlarni qisqa, anik, jonli tavsiflash, tilda lo'nda, ixchamlikka erishish Abdulla Qahhorni boshqa yozuvchilardan ajratib turadi.

Ikkinchi bobning 2.2-paragrafi "*Ernest Heminguey va Abdulla Qahhor hikoyalari qahramonlarining farqli tomonlari*" tadqiqiga bag'ishlangan. Badiiy asar asos-negizida inson kechinmalari, his-tuyg'ulari, odam va olam munosabati

⁹ Шкловский В. Художественная проза. Размышления и разборы. – М., 1961.

¹⁰ Введение в философию / Под ред. И. Т. Фролова. – М., 1990. – С. 78.

asosiy o‘rinda turadi. Shuning uchun inson psixologiyasi, ruhiy evrilishlarining tadqiqiga dunyo olimlari jiddiy e‘tibor berishadi. Inson o‘zligini anglashi bilan moddiy-ma’naviy madaniyati ham yuksala boradi. Shu jihatdan buyuk o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor va amerikalik yozuvchi Ernest Hemingueyning ijodi insoniy ma’naviy ongini rivojlantirishda muhim vosita bo‘ladi. Chunki ular yaratgan qahramonlar har jihatdan ziddiyatli va kitobxon uchun sevimlidir.

Gap biror ijodkorlarning obraz yaratish mahorati haqida borar ekan, bu borada nazariy ma’lumotlarni tahlil qilish o‘rinlidir. E. Hemingueyning “kech” asarlari qahramonlari obrazlarini 20-yillar yozuvchisi ijodida mujassamlangan “yo‘qolgan avlod” qahramoni bilan bevosita bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarur ko‘rinadi. Global adabiy jarayon kontekstida yigirmanchi asr o‘rtalaridagi “yo‘qolgan avlod” ning tipik “kod qahramoni” Heminguey bilan sodir bo‘lgan o‘zgarishlar qiziqish uyg‘otadi. Uning qahramonlari o‘z ongi dunyosiga to‘liq singib ketgan va atrofdagi voqelikka befarq bo‘lgan individual shaxslardir. Abdulla Qahhorning qahramonlari esa harchand intilishmasin, jamiyatdan uzoqlasha olmagan, jamiyat ta’sirida shakllangan kishilar. Bugun o‘zbek hikoyachiligi taraqqiyotida Abdulla Qahhorning katta adabiy maktabi bor. Kimki, hikoya janrining ustasi bo‘lmoqchi bo‘lsa, albatta, Abdulla Qahhorning hikoyalarini o‘qiydi, o‘rganadi, undan saboq oladi. Abdulla Qahhorning qahramonlari sodda va tirishqoq o‘zbeklar. U har bir qahramoniga o‘zbekning dardini, hasratini, sajayasini jo qilishga intilgan. Undan farqli ravishda Ernest Heminguey qahramonlari Amerikadan yiroqda, boshqa qit’alarda yashaydigan odamlar ham bo‘lishi mumkin edi. Heminguey bu jihatdan ancha sermahsul ijodkor sanaladi. Tanqidchilar ko‘pincha Hemingueyning eng zo‘r hikoyasi sifatida tilga oladigan voqea Afrikada ham bo‘ladi. “Frensis Makomberning qisqa baxtli hayoti” o‘zlarining professional rahbar Robert Uilson bilan uzoq vaqt ovda bo‘lgan badavlat amerikaliklar Frensis va Margot Makomberlarning munosabatlari haqida batafsil ma’lumot beradi. Xronologik bo‘lmagan holda hikoya qilingan voqea Frensisning xavf-xatar oldidagi dastlabki qo‘rqoqligini, oxir-oqibat qo‘rquv ustidan g‘alaba qozonishini va jasoratini namoyish eta olgan paytdagi bevaqt o‘limini ochib beradi.

Ernest Hemingueyning “Kurashchi” hikoyasiga nazar solish asnosida uning badiiy mahoratini Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi bilan yanada samarali qiyoslash mumkin. Masalan, E. Xemingueyning “Kurashchi” hikoyasida shunday tasvir uchraydi: “O‘tda chap qo‘lini kuyib, barmoqlari qiyshaygan bo‘lsa ham, u harakatlarini shunchalik tez qilardiki, odam bir qarashda uning nogironligini sezmasdi. Burni esa mutlaqo shaklini yo‘qotgan, yonoqlari tekis, xuddi bir paytlar qo‘pol kuch ishlatilgandek edi. Buning ustiga, ko‘zlarida qandaydir sovuq va begonalarcha qat’iyat ko‘rinardi”. Bu tasvir E. Hemingueyning aysberg usulidan foydalanganining yorqin namunasi. Yuzaki qaraganda, bu faqat qahramonning tashqi ko‘rinishi haqida gapirayotgandek tuyuladi. Ammo bu jarohatlar uning murakkab va og‘ir o‘tmishidan darak beradi. Shuningdek, uning ichki dunyosidagi sovuq va beparvolik ham tashqi qiyofasi orqali sezilib turadi. Shunga o‘xshash tasvir A. Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ham uchraydi: “Qobil bobo yerga qarab tek qoldi. Uning ko‘zlari javdirab, qo‘llari qaltirab turar edi. Ammo ichidan hech nima demadi, go‘yo bir og‘iz so‘z aytsa, butun umidlari chilparchin bo‘lgandek edi”.

Qobil boboning holati jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikning muqarrarligini aks ettiradi. Uning javdirab qarashi, qaltirab turishi o‘z haqqini talab qilishga qodir emasligini ko‘rsatadi. Abdulla Qahhor ichki kechinmalarni tashqi qiyofa bilan ochib beradi.

Har ikki ijodkorning mahorati hikoyalardagi qahramonlarning o‘zaro dialoglarida ham ko‘rinadi:

“– Qachon kurashganingni aytib ber.

– Nimani bilmoqchisan?

– Sen haqiqatan kurashchi bo‘lganmisan?

– U sekin kuldi. – Ha, bir paytlar. Endi esa men hech kim emasman. Bu so‘zlarni u qandaydir beparvolik bilan, ammo yuragining tubidagi dardni yashira olmagan holda aytdi”. Bu dialog Hemingueyning minimalizmi orqali insoniy dard va o‘zini yo‘qotganlik hissini tasvirleydi. Qahramon o‘zini “hech kim” deb atashi, bir paytlar o‘ziga bo‘lgan ishonch va hayotga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolganligini ifodalaydi. Xuddi shunday misollarni “O‘g‘ri” hikoyasida ham uchraydi:

“– Ho‘kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi! – dedi ellikboshi.

– Qobil bobo ko‘zida yosh bilan: – Xudo xayr bersin... Ola ho‘kiz edi...

– Ola ho‘kizmi? Juda yaxshi ho‘kiz bo‘lgan ekan-da, – dedi ellikboshi qo‘shimcha qilarkan. Ammo uning gaplarida shunchaki beparvo bir ohang sezilardi.”

Ellikboshining so‘zlari yuzaki taskin berayotgandek tuyulsa-da, aslida, uning mas‘uliyatsizligi va befarqligi ayon bo‘ladi. Abdulla Qahhor oddiy dialoglar orqali ijtimoiy muammolarni, mas‘uliyatdan qochishni va aldovlarni ko‘rsatadi.

Aslida, G‘arbning ko‘plab ijodkorlari hayot absurdligi xususida izlanishgan. O‘zlarini qoniqtira oladigan javob topishga urinishgan. Shu bois ularning yetib kelgan manzillari va topgan imkonlari bir xil emas. Biroq bu holat Heminguey qahramonlarini ekzistensial dunyoqarash xususiyatlaridan mahrum qilmaydi. 40-yillarning birinchi yarmida, Ikkinchi jahon urushi davrida ekzistensializm falsafasi yoki uning tarafdorlari emas, balki tarixiy vaziyat o‘zgardi. Fashistik bosqinchilik sharoitida odamlar yo fashistik tuzumlar ostidagi hayotga moslashishga yoki o‘zlarining ichki ishonchlariga tayanib, muvaffaqiyatga umid qilmay, ozodlik yo‘lida harakat qilishga majbur bo‘ldilar. Shunday qilib, bu yillarda borliq falsafasi ikkinchi jahon urushi davrida uning birlashtiruvchi yo‘nalishini belgilab bergan ko‘pchilik halol odamlarning intilishlari ifodasiga aylandi.

E‘tiborli jihati A. Qahhor ijodida uchraydigan ayollar ojiza va Sharqning eng soddadil qizlari. Ammo Hemingueyning hikoyalaridagi ayollar bir qadar o‘jar va ojizalikni tan olmaydigan, kurashuvchan, isyonkor tasvirlanadi. Bu jihatdan Hemingueyni haqli ravishda G‘arb feministik harakatining yorqin vakili sifatida talqin qilish mumkin. Har ikki adibning ijodida ham tug‘unlik davri bo‘lgan va u asosan o‘tgan asrning 40–50-yillariga to‘g‘ri kelgan. Ushbu turg‘unlik davrida E.Heminguey ijodida tushkunlik, sentimental ruhiyat hukmronlik qilgan bo‘lsa, bu davrda A.Qahhor asosan badiiy tarjimalar bilan mashg‘ul bo‘lgan. Abdulla Qahhor Ernest Heminguey singari bir yoki bir necha voqeani batafsil, barcha iker-chikirlari bilan qalamga olmaydi. Adibning hikoyalari voqelikning bir momentini qayd etgan fotosuratlariga o‘xshaydi. Ularda har bir so‘z, detal yoki tafsilot Sharq mumtoz

lirikasidagi singari kuchli ramziy yukka ega bo'ladi va mana shular orqali qahramonning ichki olami kashf etiladi. Uning "Bemor", "Anor", "Millatchilar", "Tomoshabog'", "O'g'ri", "Maston", "Qanotsiz chittak", "San'atkor", "Jonfig'on", "Yillar", "Adabiyot muallimi" kabi hikoyalari o'zbek adabiyotida hikoya janrining sezilarli darajada taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan asarlar sirasiga kiradi.

E. Xeminguey qahramonlarining asosiy farqi ularning ekzistensial muammolar bilan yuzlashishida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, uning qahramonlari "o'zligini qidirish", "hozirgi hayot" va "horlik" tushunchalariga katta ahamiyat beradi. Ular o'z hayotining mazmunini anglash yo'lida o'zlariga qarshi kurashadi, shuningdek, ichki qarama-qarshiliklarni yengishga intiladi. Robert Jordon obrazida insoniy burch va shaxsiy his-tuyg'ular o'rtasidagi keskin konflikt orqali insonning ijtimoiy o'rni va vazifasi haqida chuqur falsafiy xulosa chiqariladi. Abdulla Qahhor qahramonlari esa ko'proq milliy va ijtimoiy masalalar bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Ularning ichki dunyosi asosan xalqning urf-odatlarini, ijtimoiy tengsizlik, adolat va insoniylik masalalariga yo'naltirilgan. Misol uchun, A.Qahhorning "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyasidagi polvon obrazi, milliy xarakter va tarixiy davr voqeligini o'zida mujassamlashtirib, o'zbek xalqining ma'naviy boyligini va urf-odatlarga so-diqligini ifodalaydi. Qahhor qahramonlarining ichki kurashlari ko'pincha jamiyatdagi real muammolar bilan bog'liq bo'lib, ular o'z qilmishlarining oqibatlarini va ma'naviy mas'uliyatni his qilishga majbur bo'ladi. Ushbu adiblarning ijodidagi muhim farqlardan biri ularning uslubiy yondashuvida ham namoyon bo'ladi. Amerikalik yozuvchi asarlarida minimalizm, qisqa va sodda jumlar orqali katta mazmun ifodalash usuli hukmronlik qilsa, Qahhor o'zining tasviriy vositalar, xalqona ifodalar va dramatik to'qnashuvlar orqali milliy ruhni kuchaytiradi. Bu esa ikki yozuvchining qahramonlari orasidagi farqlarning negizini belgilaydi.

Shu tariqa, E.Xeminguey va A.Qahhor ijodini qiyoslash natijasida jahon va o'zbek adabiyoti o'rtasidagi umumiylik va xususiylik jihatlari aniqlash mumkin bo'ladi. Xemingueyning qahramonlari global insoniy muammolarni tadqiq qilsa, Qahhorning obrazlari o'z millatining ichki dunyosini va ijtimoiy muhitini chuqur yoritadi. Bu esa ikki yozuvchi ijodini adabiyotshunoslikda alohida o'rganishga va ularning merosidan yangi ilmiy xulosalar chiqarishga asos yaratadi.

"Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalari qahramonlarining mushtarak xususiyatlari" nomli uchinchi bobning 3.1-paragrafidagi **"Abdulla Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalari qahramonlarining o'xshash xususiyatlarini"** masalasi tadqiq etilgan. Heminguey hikoyalari o'zining ixchamligi, lo'nda va ma'noli dialoglarga boyligi, muallifning ortiqcha izohsiz yozilganligi bilan boshqa yozuvchilar ijodidan ajralib turadi. "Yomg'irda qolgan mushuk" hikoyasida ham biz yozuvchining hikoya yaratish mahoratiga qoyil qolsak, bir tomondan asardagi ayol obrazining ismsiz tarzda tasvirlanishiga qaramasdan, unga nisbatan o'quvchi qalbida xayrixohlik, rahm-shafqat uyg'ota olganligiga to'la iqror bo'lamiz. Go'yo Hemingueyning birgina ayol obrazi orqali butun Amerika, butun dunyo ayollari hamisha mehr, ehtirom, hurmat va e'tiborga mutlaq loyiq ekanligini his qilish mumkin.

Qahhor hikoyalarida ham shunday holat kuzatiladi. Uning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasida ayol obrazi tasvirlangan. Hemingueyning “Bizning davrimizda”, “Ko‘prik bo‘yidagi chol”, “Yolg‘izlik” kabi hikoyalari qahramonlarini A.Qahhorning “Anor”, “Bemor”, “Asror bobo” kabi hikoyalari qahramonlari bilan muqoyasa qilgan holda o‘rganish bu borada zarur xulosalarga kelishda yordam beradi.

“G‘alati yurtda” Ernest Hemingueyning inson borlig‘i, yolg‘izlik va hissiy izolyatsiyaning muhim mavzulariga bag‘ishlangan qisqa asarlaridan biridir. Ushbu hikoyada muallif insonning ichki dunyosi, uning kechinmalari va tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatiga murojaat qiladi. Bu asarning asosiy mavzusi yolg‘izlikdir. Hikoyadagi qahramon yolg‘izlanish tuyg‘usini boshdan kechiradi va boshqalar bilan aloqa qila olmaydi. Bu inson hayotida yolg‘izlikning universalligi va muqarrarligini ta’kidlaydi. Hikoyani yolg‘izlikka qo‘yilgan haykal sifatida talqin qilish mumkin. Qahramon o‘zi uchun aziz odamlarni yo‘qotish yoki uning atrofida qolganlar uni tushunmasliklarini his qilish bilan shug‘ullanishi mumkin.

Heminguey ko‘pincha “muz tog‘i” deb ataladigan lakonik uslubi bilan mashhur. U oddiy, to‘g‘ridan to‘g‘ri jumalardan foydalanadi va keraksiz tafsilotlardan qochadi, bu esa izohlash uchun joy yaratadi. O‘quvchi ko‘pincha pastki matn va his-tuyg‘ularni faqat tafakkur orqali sezadi. “G‘alati yurtda” Ernest Hemingueyning inson borlig‘i, yolg‘izlik va hissiy izolyatsiyaning muhim mavzulariga bag‘ishlangan qisqa asarlaridan biridir. Ushbu hikoyada muallif insonning ichki dunyosi, uning kechinmalari va tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatiga murojaat qiladi. Bu asarning asosiy mavzusi yolg‘izlikdir. Hikoyadagi qahramon yolg‘izlanish tuyg‘usini boshdan kechiradi va boshqalar bilan aloqa qila olmaydi. Bu inson hayotida yolg‘izlikning universalligi va muqarrarligini ta’kidlaydi. Hikoyani yolg‘izlikka qo‘yilgan haykal sifatida talqin qilish mumkin. Qahramon o‘zi uchun aziz odamlarni yo‘qotish yoki uning atrofida qolganlar uni tushunmasliklarini his qilish bilan shug‘ullanishi mumkin. Ushbu asar ko‘p jihatdan Abdulla qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasiga o‘xshaydi. A. Qahhorning “Boshsiz odam” hikoyasi badiiy jihatdan mukammal asarlaridan biri sanaladi. Hikoya roviy nutqi bilan boshlanib, unda Niso buvi haqida ma’lumot keltiriladi. Muallif tasvir bayonida aniq ma’lumotlar keltirish bilan birga, ikkilanish, gumonsirash tendensiyalarini ham berib boradi. Hemingueyning hikoyalari chuqur hissiy va falsafiy yuk bilan ajralib turadi. Uning uslubi, erkak tajribalariga e’tibor va murakkab mavzularni o‘rganish uning ishini bugungi kunga moslashtiradi. Uning hikoyalarini o‘qish hayot, o‘lim va insoniy munosabatlar haqida fikr yuritishga undaydi. Abdulla Qahhor asarlarida ko‘pincha ijtimoiy adolat, sinfiy tafovut, mazlumlar huquqlari uchun kurash mavzulari yoritilgan. Uning qahramonlari ko‘pincha jamiyatdagi mavqeiini o‘zgartirishga yoki norozilik bildirishga intiladi. Qo‘shma Shtatlar uchun ham mafkuraviy, ham ma’naviy jihatdan, Hemingueyning shaxsiy hayotida inqirozlar bo‘lgan. Buning natijasida uning asarlari qahramonlari hech qachon hayot ma’nosini topa olmaydilar, bu esa yozuvchining ushbu yillardagi ko‘plab asarlarining to‘liq bo‘lmasligiga olib keladi. Yozuvchining 40–50-yillardagi asarlarida ekzistensializmga xos xususiyatlar yana kuchaydi, bu ayniqsa, “Daraxtlar soyasida daryo bo‘ylab” va “Okeandagi orollar” asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ayni shu davrga kelib esa Abdulla Qahhor ijodida jiddiy sukunat seziladi. Ayni shu davrda u asosan tarjima bilan mashg'ul bo'ladi. Ijtimoiy-siyosiy taqiqlar A.Qahhor ijodida ham jimlik davrini boshlab beradi. Heminguey qahramonlari ko'pincha kuchli, ammo himoyasiz sifatida tasvirlangan. Ular ichki hissiyotlar bilan kurashadilar va ularning o'zlarini anglash yo'li ko'plab hikoyalarda asosiy mavzudir. Masalan, "Kobul" va "Yaxshi eski zamon" asarlarida qahramonlar shaxsiy inqirozlarga duch kelishadi, bu esa insonning muhim tajribalarini aks ettiradi. Ushbu asar ko'p jihatdan Abdulla Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyasiga o'xshaydi. A. Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyasi badiiy jihatdan mukammal asarlaridan biri sanaladi. Hikoya roviy nutqi bilan boshlanib, unda Niso buvi haqida ma'lumot keltiriladi. Muallif tasvir bayonida aniq ma'lumotlar keltirish bilan birga, ikkilanish, gumonsirash tendensiyalarini ham berib boradi.

E.Heminguey asarlarida ko'pincha hayot, o'lim, jasorat va yolg'izlik masalalari ko'tariladi. Uning qahramonlari qiyin tanlovlar va ichki ziddiyatlarga duch kelishadi. Agar E. Heminguey qahramonlari ko'pincha "yo'qolgan avlod" arxetiplarini ifodalasa, A. Qahhorda ular yanada xilma-xil bo'lib, o'z davrining ijtimoiy voqeligini aks ettiradi. Hemingueyning hikoyalari chuqur hissiy va falsafiy yuk bilan ajralib turadi. Uning uslubi, erkak tajribalariga e'tibor va murakkab mavzularni o'rganish uning ishini bugungi kunga moslashtiradi. Uning hikoyalarini o'qish hayot, o'lim va insoniy munosabatlar haqida fikr yuritishga undaydi. Abdulla Qahhor asarlarida ko'pincha ijtimoiy adolat, sinfiy tafovut, mazlumlar huquqlari uchun kurash mavzulari yoritilgan. Uning qahramonlari ko'pincha jamiyatdagi mavqeini o'zgartirishga yoki norozilik bildirishga intiladi.

Ushbu bobning 3.2-paragrafi ***"Qahhor va Ernest Xeminguey hikoyalarida qahramonlar psixologiyasining qiyosiy tahlili"*** tadqiqiga bag'ishlangan. Unda Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey asarlaridagi obrazlar inson hayoti, jamiyat va personajlarning ichki dunyosini tasvirlashda o'ziga xos yondashuvlar tahlilga tortilgan. Ikkala muallif ham uslubi va kontekstida bir-biridan farq qilsa-da, ba'zi parallelliklarni chizish va ularning tasvirlarining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

E. Hemingueydagi har bir mavzuning timsoli nafaqat tabiatning funksiyalarini baholashning o'ziga xos mezoni, balki yozuvchining o'ziga xos uslubining ba'zi muhim xususiyatlarini, xususan, ta'riflar va taqqoslashlarning tabiatini belgilaydigan hal qiluvchi dominantdir. E. Hemingueyning asarlari "obyektiv" nasr namunasi hisoblanadi. Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey turli madaniy an'analar va davrlarni ifodalovchi ikki ko'zga ko'ringan yozuvchilardir, biroq ularning asarlarida, ayniqsa, inson xarakteri va harakatlarini tasvirlashga yondashuvlarida qiziqarli o'xshashliklarni uchratish mumkin. Qahhor o'zbek adabiyoti namoyandasi sifatida, Heminguey esa XX asrning eng buyuk amerikalik yozuvchilaridan biri sifatida hikoya qilishning soddaligi orqali chuqurlikka intilgan, biroq ularning badiiy obrazlari va ifoda usullarida ham o'xshashlik, ham farqlar mavjud. Shu nuqtayi nazardan biz har ikki adib ijodidagi mavzularni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin:

1. Kurash mavzulari: Har ikki muallifda ham kurash mavzusi seziladi, lekin Qahhor uchun bu insonning tashqi sharoit, zulm va adolatsizlik bilan ijtimoiy

kurashi bo'lsa, Heminguey uchun bu insonning o'zi bilan, qo'rquvi va taqdiri bilan kurashidir. Heminguey uchun bu kurash ko'proq falsafiy va ekzistensialdir, A.Qahhor uchun esa ijtimoiy va jamoaviydir.

2. Qahramon obrazi: A. Qahhor qahramonlari ko'pincha jamoaviy bo'lib, xalqning ramzi, uning intilish va orzularini ifodalaydi. Heminguey, aksincha, ichki kechinmalari va o'zini saqlab qolish uchun kurashi hikoyaning asosiy yo'nalishiga aylangan yopiq, yolg'iz individual qahramonlarni afzal ko'radi.

3. Tabiat: A. Qahhor uchun tabiat odamlarning mehnat va hayot davrlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u hayotning bir bo'lagi, yordamchi va quvvat manbayidir. Hemingueyda tabiat ko'pincha inson hayotining mo'rtligini ta'kidlaydigan tashqi element bilan kurashadigan kuch sifatida harakat qiladi.

Badiiy matnda kinoya vositasining ifodalanish jihatdan murakkab turi ham mavjudki, u assotsiativ ironiya deb ham ataladi. Bunda salbiy shaxsiy munosabat asta-sekinlik bilan yuzaga chiqib, so'zlovchi ideolektiga xos illokutiv maqsad sekin-asta, darajalangan holda yuzaga chiqadi. A. Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida uning eng yaxshi namunalarini uchratish mumkin. Hikoyaning nomlanishidayoq yozuvchi assotsiativ kinoyadan foydalanganligini ko'ramiz. Bibliom sifatida keltirilgan bu kinoya hikoya personajlari mulla Norqo'zi va uning xotini ustidan ko'tarilgan satirik kulgini fosh etishga qaratilgan. Unda ifodalangan yashirin mazmun asta-sekinlik bilan darajama-daraja ochib borilgan. Masalan, hikoyada mulla Norqo'zining xotiniga nisbatan "yetti qavat parda ichida o'tiradigan", "farishta", "diyonatli", "pokdamon", "shariatni mahkam ushlagan" kabi kinoya vositalarining qo'llanilishi progressiv holda amalga oshirilgan. Hikoya so'nggida uning barcha sirlarining fosh bo'lishi unga berilgan ijobiy sifatlarning teskari ma'noda kinoya usuli bilan qo'llanganligi ma'lum bo'ladi va kitobxonning ong sezimlarida bu holat regressiv harakat qila boshlaydi. Bunda kitobxon ko'z o'ngida haqiqiy ma'naviy buzuq, tuban ayol qiyofasi reallashadi. Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey hikoyalarida qahramonlar ruhiyati tasvirida chuqur psixologizm va ramziy ifodalar orqali inson kechinmalari o'ziga xos usullarda yoritiladi. Heminguey o'zining minimalistik uslubida dialoglar va ramziy manzaralar orqali qahramonlar ichki iztirobini noziklik bilan aks ettiradi. "Oq fillarga o'xshash tepaliklar" hikoyasida ayol qahramonning ruhiy holati uning qaror qabul qilishdagi ikkilanishi va sherigi bilan ziddiyatli munosabatlarida ifodalanadi. Qahhor esa o'z hikoyasida qahramonlarning ruhiy iztiroblarini realistlik tasvirlar va hayotiy tafsilotlar orqali yoritib, insonning ichki kurashini ochib beradi. Uning "Nurli cho'qqilar" hikoyasida qahramonning maqsad va hayotga bo'lgan umidi uning ruhiy holatining markaziy elementi sifatida ko'rinadi. Tabiat tasvirlari va muhitning ramziy ahamiyati har ikkala hikoyada ham o'zgacha ahamiyatga ega. Heminguey hikoyasidagi oq fillarga o'xshash tepaliklar ayolning ichki dunyosini, uning tashvish va noaniqliklarini ramziy aks ettiradi. Tepaliklar uning uchun ham umid, ham qo'rquv timsoli bo'lsa, Qahhor hikoyasida tasvirlangan nurli cho'qqilar insonning yorug' kelajagi, orzu va ideal hayot ramzidir. Tabiatning ramziy tasviri har ikkala hikoyada qahramonlar kechinmalarini yanada kuchaytiradi. Ikkala hikoyada ham insonlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar yoritiladi. Heminguey erkak va ayol o'rtasidagi ziddiyatni, ularning bir-birini tushunmasliklari va

maqsadlaridagi nomuvofiqlikni ochib beradi. Qahhor esa qahramonning jamiyat va o'z atrofidagi sharoit bilan bo'lgan murakkab munosabatini tasvirlaydi. Shunday qilib, ikkala hikoya ham insoniy munosabatlarning murakkabliklarini ochib berishga qaratilgan.

Ushbu hikoyalar o'z mazmunida o'quvchini chuqur mulohaza qilishga undaydi. Heminguey va Qahhor asarlari hayotning murakkab tomonlarini o'quvchiga ochib berish orqali universal insoniy tajribani yoritadi. Hemingueyning minimalistik uslubi va Qahhorning realistik yondashuvi qahramonlarning ichki dunyosini o'ziga xos usullar bilan ochib berishga qaratilgan. Har ikki hikoya ham inson mohiyatini anglash, hayot va tanlovlar haqida falsafiy mulohaza qilishga undaydi. Shu sababli, mazmun va uslub jihatidan farqli bo'lsa-da, ushbu asarlar orasida insoniy mohiyatni yoritishda chuqur o'xshashliklar mavjud.

E.Heminguey hikoyalari A.Qahhor hikoyalari kabi qisqa va lo'nda. Voqeani boricha tasvirlash ustuvorlik qiladi. Uning "Dahshatli kutish" hikoyasidagi voqea va obrazlarni A. Qahhorning "Bemor" hikoyasiga solishtirish mumkin. Qahhorning "Bemor" hikoyasi Hemingueyning "Dahshatli kutish" asariga qiyoslansa, ikkisida ham bemor kishi bor, biroq bittasida ota o'g'lining sog'ayishini kutishi dahshatli bo'lsa, ikkinchisida er o'z xotinini tuzata olmay sarson bo'lishi dahshatli tasvirlangan. Ikkala yozuvchi ham qahramonlarning ruhiy holatini tashqi dunyo bilan o'zaro aloqada tasvirlaydi. Heminguey tepaliklar va manzaraning ramziy ma'nosidan foydalanib, qahramonning ruhiy kurashini yanada kuchaytirsa, Qahhor jamiyat va atrof-muhit ta'sirida shakllangan qahramon kechinmalarini aniq va realistik tarzda aks ettiradi. Har ikki yozuvchi qahramonlarining ruhiy olamini tasvirlashda noziklik va chuqur mulohaza bilan yondashadi, bu esa asarlarni universal insoniy tajribaga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, yozuvchilar psixologik tahlil vositasida o'quvchini qahramonlarning ichki dunyosiga sho'ng'ishga undaydi.

XULOSA

1. Abdulla Qahhor o'zbek adabiyotining yorqin vakili bo'lib, ijodi ko'pincha oddiy odamlar hayoti, ularning ichki dunyosi va ijtimoiy-ma'naviy muammolar bilan kurashini tasvirlashga yo'naltirilgan. Uning hikoyalarda asosiy mavzular adolat uchun kurash, kundalik turmush qiyinchiliklari hamda an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi ziddiyatni o'z ichiga oladi. A. Qahhor o'z qahramonlarining ruhiy kechinmalariga katta e'tibor qaratib, xalq xarakterini va yaxshi hayotga intilishlarini yoritadi.

2. Ernest Heminguey minimalizm, lakonizm va chuqur ramziylikni mujassam etgan o'ziga xos uslubi bilan tanilgan. Uning hikoyalari yolg'izlik, inson va tabiat o'rtasidagi kurash, hayot yo'qotishlari hamda urush mavzulariga boy. Heminguey hayotning ko'zga ko'rinadigan soddaligi ichida chuqur ziddiyatlar va ekzistensial muammolarni yashirish san'atini mohirona namoyish etadi.

3. Abdulla Qahhor hikoyalaridagi inson obrazi, avvalo, mehnatkash, sodda va shu bilan birga mag'rur qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Bu qahramonlar ko'pincha adolatsizlik va zulmga duch kelishadi, lekin o'z qadr-qimmatlari va qat'iyatlarini saqlaydilar. Jumladan, "Dahshat", "Nurli cho'qqilar" va "Anor"

hikoyalarida A. Qahhor har qanday qiyinchiliklarga qaramay bilim olishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilayotgan insonning ichki dunyosini tasvirlaydi.

4. Heminguey qahramonlari ko‘pincha yolg‘iz, kuchli va ichki inqirozlarni boshdan kechiradigan, his-tuyg‘ulari yuzaki ifoda etilmaydigan shaxslardir. Uning “G‘alati yurtda”, “Yomg‘ir ostidagi mushuk”, “Yaxshi sher” va “Sodiq buqa” kabi hikoyalarida inson taqdir va sharoitlar bilan doimiy kurash jarayonida tasvirlangan. Bu asarlarda asosiy e‘tibor g‘alabaga emas, balki kurashda ishtirok etishga, qadr-qimmat va chidamlilikka qaratilgan. Heminguey bu jarayon orqali insonning mavjudlik ma‘nosini izlashini ochib beradi.

5. Abdulla Qahhor asarlarida mehnat obrazi tabiat bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, tabiat qahramonlar uchun kuch va ilhom manbai sifatida tasvirlanadi. A. Qahhor asarlaridagi mehnat nafaqat jismoniy faoliyat, balki uning qahramonlarining ma‘naviy mustahkamligi va butunligini ta‘kidlaydigan axloqiy tamoyil sifatida ko‘rinadi.

6. E. Heminguey uchun tabiat shunchaki muhit emas, balki o‘ziga xos qahramonga aylanadi. U tabiatni dunyoning qudrati va shafqatsizligini ramziy qiluvchi element sifatida ko‘rsatadi. Masalan, “Nimaningdir oxiri” hikoyasi insonning taqdirga qarshi kurashi timsoliga aylangan bo‘lib, tabiatning har bir elementi inson hayotiy sinovlarini ifodalaydi. A. Qahhor esa insonning qadri va umri har narsadan ustunligini ta‘kidlaydi. Uning “Anor” hikoyasida axloq va qoidalar ham inson qadridan ustun emasligi ko‘rsatib berilgan.

7. Abdulla Qahhor va Ernest Heminguey ijodini tahlil etganda, har ikkala yozuvchi inson hayotini murakkab kurash jarayoni sifatida tasvirlashga intilganliklari bilan mushtarak bo‘lsalar-da, bu kurashni yoritish uslublarida sezilarli farqlar mavjud. Heminguey o‘ziga xos lakonizm, soddalik va vazminlik orqali insonning hayotiy tajribalarini qisqa, ammo chuqur ma‘noli shaklda ifoda etgan bo‘lsa, Qahhorning uslubi hissiyotlarga boy, jonli tasvirlarga asoslanib, insonning ichki kechinmalarini teran yoritishga qaratilgan. Shu jihatdan, ularning ijodi insoniy hayotning murakkabligini turli badiiy vositalar bilan ochib berishdagi ikki xil, ammo bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvni namoyon etadi.

8. Abdulla Qahhor va Ernest Hemingueyning hikoyalaridagi obrazlar tizimi qahramonlarning ruhiy individualligini yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Qahhor qahramonlarining ruhiy olamini ularning kundalik hayoti va jamiyatdagi o‘rni orqali realistik tarzda ochib beradi, bu esa ularni hayotga yaqin va ta‘sirchan qiladi. Heminguey esa kamgap va ramziy uslubi orqali qahramonlarning ichki dunyosini o‘quvchi tasavvuriga havola qilib, ular bilan ichki muloqotga kirishishni talab etadi.

9. Ikkala yozuvchi ham oddiy hayotiy vaziyatlar orqali qahramonlarning chuqur ruhiy tajribalarini yoritishga e‘tibor qaratadi. Qahhorning qahramonlari ichki kurashlarini tashqi voqealar va atrof-muhit orqali aks ettirsa, Hemingueyning obrazlari ko‘pincha sukut va ramzlar orqali o‘z hissiyotlarini namoyon qiladi. Bu usullar orqali har ikki yozuvchi qahramonlarning ruhiy individualligini o‘quvchi qalbiga ta‘sir etadigan darajada aniq va samimiy yoritadi.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSC.03/30.12.2019.FIL.19.01 AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE**

**ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK
LANGUAGE AND LITERATURE**

MIRZAALIYEVA NARGIZA RAJABBOYEVNA

**A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL STUDY OF THE
CHARACTERS IN ABDULLA QAHHOR AND ERNEST HEMINGWAY'S
STORIES**

**10.00.06 - Comparative Literature, Contrastive Linguistics and
Translation Studies**

**DISSERTATION ABSTRACT OF DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.4.PhD/Fil2861.

The doctoral thesis was carried out at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) and has been posted on the Scientific Council's website at www.tsuull.uz and on the "ZiyoNet" information and educational portal at www.ziynet.uz.

Scientific advisor: **Jurayeva Gulnoza Ahmatovna**
Doctor of Philological sciences, professor

Official opponents: **Musurmonov Erkin Robbimovich**
Doctor of Philological sciences, professor

Umarova Mahliyo Yunusovna
Doctor of Philological sciences, Associate professor

Leading organization: **National pedagogical university of Uzbekistan**

The defense of the dissertation will take place on « ____ » _____ 2025 at _____ hours at a meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 on the award of scientific degrees at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz), e-mail: interdep@navoiy-uni.uz).

The dissertation is available on the Information and Resource Center of the Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature (registered under the number _____). (Address: 100100, Tashkent city, Yakkasaray district, Yusuf Xos Hojib street, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz).

The dissertation author's abstract is distributed on " ____ " _____ 2025 (registry record No. _____ dated « ____ » _____ 2025).

Sh.S.Sirojiddinov
Chairman of the Scientific Council for
the award of scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, Academician

Q.U.Pardayev
Scientific Secretary of the Scientific
Council for the award of scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, professor

N.Z.Normurodova
Chairman of the Scientific Seminar of the
Scientific Council for the award of scientific degrees,
Doctor of Philological sciences, professor

INTRODUCTION (the abstract of the (PhD) dissertation)

Topicality and necessity of the thesis. In the world, fantasy, whose roots go back to the distant past, mythology, and folklore, occupies an important place in the development of the civilization, culture, and literature of the peoples of the world. One of the pressing tasks is to study literary works of science fiction, which have evolved to acquire new levels, modern forms, and content in the context of scientific and technological progress over the centuries, and to utilize them in elevating society's enlightenment and spirituality.

In world literary studies, one of the main scientific issues that needs to be explored is the comparative analysis of works by writers from different nations and literary movements to reveal the common and unique aspects of their creativity, and to determine the role of literary influence in this process. In the era of modern globalization and information technology, as the boundaries of literary processes blur and literary interactions intensify, the need for a fundamental and comprehensive study of this scientific problem is becoming increasingly important.

In previous periods of Uzbek literary studies, the analysis of writers' works primarily focused on ideological and literary aspects. However, with the advent of independence, an opportunity arose to examine our writers' works through the paradigms of literary influence and originality in relation to Western authors' writings. It is also true that numerous topics in this field await researchers. As the head of our state rightly emphasized, "It is of great importance to study and promote modern Uzbek literature on an international scale, to analyze this multifaceted subject in close connection with the most significant processes occurring in today's global literary space, to draw necessary scientific and practical conclusions, and to define our future objectives"¹¹. In this regard, it is crucial to conduct a comparative analysis of the literary traditions established in American and Uzbek literature, as well as to study the vivid characters created in both literary traditions. The relevance of the dissertation topic is determined by comparing the stories of Ernest Hemingway, one of the eminent writers in world literature who crafted concise and meaningful short stories while making efficient use of every sentence, with those of Abdulla Qahhor, a prominent representative of the Uzbek short story school. This comparison includes a comparative-typological analysis of the characters in their works.

This dissertation contributes, to a certain extent, to the implementation of tasks outlined in the following documents: Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-4797 "On the Establishment of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature" dated May 13, 2016; Decree No. UP-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026" dated January

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi // Xalq so'zi, 2018-yil 8-avgust.

28, 2022; Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-2789 “On Measures for Further Improvement of the Activities of the Academy of Sciences, Organization, Management and Financing of Scientific Research” dated February 17, 2017; Directive of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 124-F “On Holding an International Conference on “Topical Issues of Studying and Promoting Uzbek Classical and Modern Literature at the International Level” dated February 16, 2018; as well as other relevant regulatory legal documents in this field.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. The dissertation was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the republic I. “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and democratic state, development of an innovative economy”.

The extent of study of the problem. The comparative-typological approach to studying characters in literary works has long been one of the complex issues drawing the attention of literary scholars. N.G.Chernyshevsky¹², who conducted the initial observations on this topic, noted the existence of various forms of typological analysis in the works of L.N. Tolstoy. His assessment of character analysis as “the most important among the qualities that give strength to creative talent” remains relevant to this day. Later, this concept was introduced into the scientific field by representatives of the psychological branch of the cultural-historical school of literary studies, including A. Potebnya.

L.S. Vygotsky¹³, who opened a new chapter in developing concepts of “aesthetic reaction”, catharsis, and emotional-figurative content in literary works, left valuable observations on the interrelationship between language and thought, literature and society, and the psychology of creativity and perception. His views on the transformation of emotions into images of literary fantasy are encapsulated in the scholar's reflection that “each era possesses its own psychological spectrum, which is selectively adopted by art”.

We can observe the fruitful results of literary typological analysis primarily in the historical-comparative works of literary scholars such as D.S.Likhachev, L.Y.Ginzburg, A.V.Karelsky, and N.V.Zababurova¹⁴. It should be noted that researchers who have studied Western literature (A.V.Karelsky, N.V.Zababurova, N.S.Leytes) discuss the multifaceted nature of the concept of psychologism in the art of words. They emphasize the necessity of employing a combination of

¹² Чернышевский Н. Г. Детство и отрочество. Военные рассказы. Сочинения графа Л.Н. Толстого. Собр. соч.: В 15 т. Т. 2. – М., 1949. – С. 505.

¹³ Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб.: Азбука, 2000. – С. 93.

¹⁴ Лихачёв Д.С. Человек в литературе Древней Руси. – М.: Наука, 1970. – С. 178; Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – М.: Intrada, 1999. – С. 415; Карельский А.В. От героя к человеку (Развитие реалистического психологизма в европейском романе 30-60-х годов XIX в.). – Вопросы лит. – 1983. – №9. – С. 81–122; Забабура Н.В. Французский психологический роман (эпоха Просвещения и романтизм). – Ростов-на-Дону: Изд. Ростовск. ун-та, 1992. – С. 223.

